



## MINTAQADA YASHIL INVESTITSIYALARINI MOLIYALASHTIRISH VOSITALARI



**Palvaniyazov Anvar Amatovich**

Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch davlat universiteti  
Iqtisodiyot kafedrasи dotsenti, PhD.

***Annotatsiya:** Ushbu maqolada yashil investitsiyalarini moliyalashtirishning ahamiyati va Xorazm viloyati misolida ularning rivojlantirish imkoniyatlari tahlil qilingan. Yashil investitsiyalar ekologik barqarorlik va iqtisodiy o'sishni ta'minlashning muhim omili hisoblanadi. Moliyalashtirish manbalari sifatida davlat grantlari va subsidiyalari, tijorat banklari tomonidan taqdim etiladigan yashil kreditlar, xalqaro moliya institutlarining investitsiyalari hamda xususiy sektor sarmoyalari ko'rib chiqiladi. Shuningdek, maqolada Xorazm viloyatida yashil investitsiyalarini rivojlantirish uchun quyosh energiyasidan foydalanish, suv resurslarini tejash, ekologik qishloq xo'jaligini rivojlantirish va chiqindilarni qayta ishlash kabi ustuvor yo'nalishlar tahlil qilingan. Yashil investitsiyalarini kengaytirish orqali viloyatda barqaror iqtisodiy o'sishga erishish va ekologik muammolarni bartaraf etish mumkinligi asoslab berilgan. Maqola davlat va xususiy sektor uchun yashil iqtisodiyotni rivojlantirish bo'yicha muhim tavsiyalarni o'z ichiga oladi.*

***Kalit so'zlar:** yashil investitsiyalar, moliyalashtirish, ekologik barqarorlik, qayta tiklanadigan energiya, suv resurslari, chiqindilarni qayta ishlash.*

**Аннотация:** В статье анализируется важность финансирования зеленых инвестиций и возможности их развития на примере Хорезмской области. Зеленые инвестиции являются важным фактором обеспечения экологической устойчивости и экономического роста. Источниками финансирования являются государственные гранты и субсидии, зеленые кредиты, предоставляемые коммерческими банками, инвестиции международных финансовых институтов и инвестиции частного сектора. В статье также анализируются приоритетные направления развития зеленых инвестиций в Хорезмской области, такие как использование солнечной энергии, экономия водных ресурсов, развитие экологического сельского хозяйства и переработка отходов. Утверждается, что за счет расширения зеленых инвестиций можно добиться устойчивого экономического роста в регионе и решить экологические проблемы. Статья содержит важные рекомендации для государственного и частного секторов по развитию зеленой экономики.

**Ключевые слова:** зеленые инвестиции, финансирование, экологическая устойчивость, возобновляемые источники энергии, водные ресурсы, переработка отходов.

**Abstract:** This article analyzes the importance of financing green investments and the opportunities for their development on the example of the Khorezm region. Green investments are an important factor in ensuring environmental sustainability and economic growth. Sources of financing include state grants and subsidies, green loans provided by commercial banks, investments from international financial institutions, and private sector investments. The article also analyzes priority areas for the development of green investments in the Khorezm region, such as the use of solar energy, saving water resources, developing ecological agriculture, and waste recycling. It is substantiated that by expanding green investments, sustainable economic growth in the region can be achieved and environmental problems can be eliminated. The article contains important recommendations for the state and private sectors on the development of a green economy.

**Keywords:** green investments, financing, environmental sustainability, renewable energy, water resources, waste recycling.

### Kirish

Bugungi kunda yashil iqtisodiyotga o'tish barqaror rivojlanishning muhim shartlaridan biri hisoblanadi. Bu jarayonda yashil investitsiyalar muhim rol o'ynaydi, chunki ular ekologik toza texnologiyalarni joriy etish va atrof-muhitga salbiy ta'sirni kamaytirishga xizmat qiladi. Yashil investitsiyalar barqaror energiya, chiqindilarni qayta ishslash, suv resurslarini boshqarish, iqlim o'zgarishiga moslashish va tabiiy resurslardan samarali foydalanish kabi yo'nalishlarni qamrab oladi.

Atrof - muhitning ifloslanishi va iqlim o'zgarishiga qarshi kurash global rivojlanishning dolzarb vazifasidir. Jahon sivilizatsiyasining hozirgi rivojlanish davri "yashil" iqtisodiyotga o'tish bilan bog'liq bo'lib, u yashil o'sish, yashil investitsiyalar va yashil moliya tushunchalari bilan chambarchas bog'liq.<sup>1</sup>

Hozirda yashil investitsiyalar global iqtisodiy va ekologik muammolarni hal qilishda muhim rol o'ynamoqda. Iqlim o'zgarishi, tabiiy resurslarning kamayishi va atrof-muhitning ifloslanishi global miqyosda dolzarb muammolar bo'lib, bu muammolarni hal qilish uchun iqtisodiy tizimda yangi yondashuvlar zarur. Xalqaro tashkilotlar, xususan BMT, OECD va Jahon banki yashil iqtisodiyotni rivojlantirish bo'yicha dasturlarni qo'llab-quvvatlamoqda. Shu bilan birga, Parij kelishuvi va 2030-yilgacha barqaror rivojlanish maqsadlari yashil investitsiyalarni rag'batlantirishga qaratilgan. Shu sababli, yashil investitsiyalarni rivojlantirish nafaqat iqtisodiy, balki ekologik jihatdan ham muhimdir. Ular barqaror energiya, chiqindilarni qayta ishslash, iqlim o'zgarishiga moslashish va tabiiy resurslardan samarali foydalanishni ta'minlash orqali iqtisodiy taraqqiyotning ekologik jihatdan maqbul bo'lishiga xizmat qiladi.

Zamonaviy ilm-fan va amaliyotda "yashil investitsiyalar" atamasi atrof - muhitni muhofaza qilish, qayta tiklanadigan energiya manbalari, energiya samaradorligini oshirish va boshqa sohalardagi loyihalar bilan bog'liq. OECD tadqiqotchilar yashil investitsiyalarning quyidagi yo'nalishlarini aniqladilar.<sup>2</sup>

<sup>1</sup> Полховская Т.Ю. Экономические приоритеты реализации проектов устойчивого развития: опыт Китая // Инженерный вестник Дона. 2012. № 3. URL: <http://www.ivdon.ru>

<sup>2</sup> Inderst, G., Kaminker, Ch., Stewart, F. Defining and Measuring Green Investments: Implications for Institutional Investors' Asset Allocations // OECD Working Papers on Finance, Insurance and Private Pensions. 2012. No. 24. Pp. 1-55.

- ❖ Umumiyligi tabiatni muhofaza qilish faoliyati (shu jumladan chiqindilarni boshqarish, havo va suvning ifloslanishiga qarshi kurash, tuproqni tiklash);
- ❖ Qayta tiklanadigan energiya (shu jumladan biyoqilg'i);
- ❖ Samaradorlikni oshirish uchun yonish texnologiyalari (yoqilg'i, chiqindilar);
- ❖ Iqlim o'zgarishini yumshatish (masalan, issiqxona gazlarini kamaytirish, nazorat qilish va boshqalar);
- ❖ Atrof-muhitni muhofaza qilishga bilvosita hissa (masalan, energiyani saqlash);
- ❖ Transport (chiqindilarni kamaytirish, samaradorlik);
- ❖ Binolar va inshootlar (energiya samaradorligi).

Jahon iqtisodiyotining yashil o'sishini ta'minlash uchun barqaror o'sishni qo'llab-quvvatlaydigan va yangi iqtisodiy imkoniyatlarni yaratadigan yangiliklar va innovatsiyalarni rag'batlantirish kerak. Kelajakda yashil investitsiyalarning o'sishi yanada barqaror bo'lishi kerak, bu esa yashil investitsiyalarni moliyalashtirish vositalarining xususiyatlarini, qo'llanilishining o'ziga xos xususiyatlarini o'rganishni va baholashni talab qiladi.

Yashil investitsiyalar – ekologik barqarorlikni ta'minlash va iqlim o'zgarishiga qarshi kurashda muhim moliyaviy vositadir. Yashil investitsiyalar nafaqat ekologik muammolarni hal qilishga xizmat qiladi, balki iqtisodiy barqarorlikni ta'minlash, yangi ish o'rnlari yaratish va innovations texnologiyalarni rivojlantirishda ham muhim rol o'yndaydi.

Yashil investitsiyalarni moliyalashtirish vositalari ekologik muammolarni hal qilish va barqaror iqtisodiy o'sishga erishishda muhim omil hisoblanadi. Ushbu investitsiyalar ekologik xavfsizlikni ta'minlash, innovations texnologiyalarni rivojlantirish va barqaror iqtisodiyotni shakllantirishga xizmat qiladi. Kelajakda yashil moliyaviy mexanizmlarning yanada rivojlanishi global ekologik va iqtisodiy barqarorlikka ijobiy ta'sir ko'rsatishi kutilmoqda.

Yashil investitsiyalar bugungi ilmiy va amaliy tadqiqotlar markazida turadigan muhim mavzulardan biridir. Ilmiy jihatdan olganda, bu soha iqtisodiyot, ekologiya va moliyaviy menejmentning kesishgan nuqtasida joylashgan bo'lib, u ekologik toza texnologiyalarni joriy etishning iqtisodiy samaradorligini o'rganish bilan bog'liq. Ko'plab xalqaro tashkilotlar va olimlar yashil investitsiyalarni barqaror iqtisodiy o'sishning asosiy omillaridan biri sifatida ko'rmoqda. Amaliy nuqtayi nazardan esa, yashil investitsiyalar ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish sohalarida ekologik barqarorlikni ta'minlash uchun muhim vositadir. Davlatlar yashil investitsiyalarni qo'llab-quvvatlash orqali energiya tejamkorligini oshirish, chiqindilarni kamaytirish va yangi ish o'rnlarini yaratish imkoniyatiga ega bo'ladi. Shu sababli, yashil investitsiyalar bo'yicha tadqiqotlar nafaqat ilmiy ahamiyatga ega, balki ularning amaliy qo'llanishi ham muhim hisoblanadi.

Yashil investitsiyalarni moliyalashtirish masalasida bir qator muammolar mavjud. Birinchidan, ko'plab investorlar ekologik loyihalarning daromadliligiga shubha bilan qarashadi, chunki bu loyihalalar uzoq muddatli investitsiyalarni talab qiladi. Ikkinchidan, yashil moliyalashtirish mexanizmlari hali ham yetarlicha rivojlanmagan bo'lib, investorlar uchun aniq kafolatlar va rag'batlantiruvchi mexanizmlar yo'q. Uchinchi muammo esa, ba'zi davlatlarda yashil loyihalarni qo'llab-quvvatlash uchun huquqiy va iqtisodiy sharoitlarning to'liq shakllanmaganligidir. Shu sababli, yashil investitsiyalarni

moliyalashtirish mexanizmlarini chuqur o'rganish va ularni takomillashtirish hozirgi kunda dolzarb masala bo'lib qolmoqda. Ushbu tadqiqotda yashil investitsiyalarni moliyalashtirishning mavjud muammolari tahlil qilinib, ularni hal qilish bo'yicha amaliy tavsiyalar beriladi.

### **Mavzuga oid adabiyotlar sharhi**

Yashil iqtisodiyot va yashil investitsiyalar bugungi kunda barqaror rivojlanish strategiyasining muhim yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Ushbu yo'nalishda olib borilgan tadqiqotlar yashil investitsiyalarni jalb qilishning asosiy omillari, ularning iqtisodiy samaradorligi hamda moliyalashtirish mexanizmlarini chuqur o'rganishga qaratilgan.

Xalqaro tadqiqotlarda yashil iqtisodiyotga o'tish jarayonida iqtisodiy o'sish va ekologik barqarorlikni muvozanatlash muhim masala sifatida ko'rildi. OECD va Jahon banki tomonidan o'tkazilgan tadqiqotlarda yashil investitsiyalar iqlim o'zgarishiga moslashish va uglerod neytralligiga erishishda muhim rol o'ynashi ta'kidlanadi. Shu bilan birga, yashil moliyalashtirish mexanizmlarini rivojlantirish, jumladan, yashil obligatsiyalar, subsidiyalar va ekologik kreditlar orqali investitsiyalarni jalb qilish masalalari ham batafsil o'rganilgan.

O'zbekistonda yashil iqtisodiyotga o'tishning dolzarbliji bo'yicha qator ilmiy tadqiqotlar olib borilgan. Xususan, yashil iqtisodiyotga o'tishning iqtisodiy jihatlari, uni moliyalashtirish vositalari hamda huquqiy asoslari mamlakat miqyosida keng muhokama qilinmoqda. Mavjud tadqiqotlarda yashil investitsiyalarni jalb qilishda davlat-xususiy sheriklik modeli, xalqaro moliya institutlari bilan hamkorlik hamda mahalliy investitsion muhitni takomillashtirish zarurligi ta'kidlangan. O'zbekiston Respublikasida yashil iqtisodiyotni rivojlantirishga oid qabul qilingan normativ-huquqiy hujjatlar, xususan, "Yashil iqtisodiyotga o'tish strategiyasi" milliy miqyosda yashil investitsiyalarni qo'llab-quvvatlashda muhim rol o'ynaydi.<sup>3</sup>

Qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan foydalanish yashil investitsiyalarning muhim tarkibiy qismi hisoblanadi. O'zbekistonda bu borada amalga oshirilayotgan chora-tadbirlar, jumladan, quyosh va shamol energetikasini rivojlantirish bo'yicha milliy dasturlar yashil iqtisodiyotga o'tishda asosiy yo'nalishlardan biri sifatida ko'rilmoxda. Qayta tiklanuvchi energiya manbalarining qishloq xo'jaligi va sanoat sektorida qo'llanilishi bo'yicha olib borilgan tadqiqotlar yashil investitsiyalarning samaradorligini oshirishga qaratilgan yechimlarni ilgari surmoqda.

Xorazm viloyati misolida yashil investitsiyalarni jalb qilish va rivojlantirish masalalari ham dolzarb hisoblanadi. Ushbu hududda qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan foydalanish bo'yicha ilmiy-tadqiqot ishlari olib borilmoqda. Xususan, Urganch Davlat Universiteti olimlari tomonidan amalga oshirilgan tadqiqotlar va "Hududiy elektr tarmoqlari" AJ Xorazm filiali tomonidan o'tkazilgan seminar va tadbirlar viloyatda yashil energiyani joriy etishning istiqbollari va amaliy natijalarini o'rganishga qaratilgan. Mahalliy darajada yashil investitsiyalarni moliyalashtirish va ekotizimni rivojlantirish bo'yicha ilg'or tajribalarni o'rganish muhim ahamiyatga ega.

Ilmiy tadqiqotlarning natijalari shuni ko'rsatadiki, yashil investitsiyalar iqtisodiy barqarorlik va ekologik muvozanatni ta'minlashda muhim rol o'ynaydi. O'zbekiston va

<sup>3</sup> <https://lex.uz/docs/-5851499>

Xorazm viloyatida yashil iqtisodiyot va yashil investitsiyalarni rivojlantirish bo'yicha olib borilayotgan tadqiqotlar va amaliy harakatlar bu yo'nalishda hali keng imkoniyatlар mavjudligini tasdiqlaydi.

### **Tadqiqot metodologiyasi**

Ushbu tadqiqot ishlarini amalga oshirishda ilmiy tadqiqot metodologiyasida keng qo'llaniladigan usullardan foydalanildi. Mintaqada yashil investitsiyalarni moliyalashtirish vositalarini tahlil qilishda umumiylidkan individuallikka va aksincha tartibda deduksion yoki induksion usullardan foydalanish samara bersa, abstrakt-mantiqiy fikrlash usuli esa jarayonni tizimli tahlil qilishda ahamiyatlidir. Ilmiy tahlil jarayonida ana shu ilmiy tadqiqot usullaridan, xususan, ilmiy abstraksiya, induksiya va deduksiya, tizimli va qiyosiy tahlil, ekspert baholash va iqtisodiy-statistik, tahlil qilishda esa sintez va tahlil usullarini keng foydalanildi.

### **Tahlil va natijalar**

Asosiy kapitalga o'zlashtirilgan investitsiyalar tarkibi moliyalashtirish manbalariga ko'ra turli xil bo'lishi mumkin. Ushbu investitsiyalar davlat byudjeti mablag'lari, korxona va tashkilotlarning o'z mablag'lari, tijorat banklari kreditlari hamda xorijiy investitsiyalar kabi manbalardan shakllanadi. Davlat byudjeti hisobidan amalga oshirilgan investitsiyalar ko'pincha ijtimoiy infratuzilma, transport va energetika sohalariga yo'naltiriladi. Korxona va tashkilotlarning o'z mablag'lari hisobiga amalga oshiriladigan investitsiyalar, asosan, ishlab chiqarishni modernizatsiya qilish va kengaytirish uchun sarflanadi. Tijorat banklarining kredit mablag'lari esa yangi loyihalarni moliyalashtirish va mavjud aktivlarni yangilashda muhim o'rinn tutadi. Shuningdek, xorijiy investitsiyalar va xalqaro moliyaviy institutlarning mablag'lari yirik strategik loyihalarni amalga oshirishda muhim manbalardan biri hisoblanadi. Shu tariqa, moliyalashtirish manbalarining har biri iqtisodiyotning turli tarmoqlarida investitsion faollilikni ta'minlashga xizmat qiladi.

Jadvalda Xorazm viloyatida yashil investitsiyalar uchun moliyaviy resurslarning asosiy manbalari aks ettirilgan. Moliyalashtirish manbalari orasida davlat byudjeti, bank kreditlari, chet el investitsiyalari va kreditlari, shuningdek, korxonalar va aholining o'z mablag'lari mavjud. Ma'lumotlardan ko'rinish turibdiki, davlat byudjeti va bank kreditlari asosiy moliyalashtirish manbalari sifatida ustunlik qilmoqda. Bu esa hukumat tomonidan yashil loyihalarga berilayotgan e'tibor yuqori ekanligini ko'rsatadi. Biroq, xususiy sektor va xorijiy investitsiyalar ulushi nisbatan past bo'lib, bu investitsiya jalb qilish strategiyalarini takomillashtirish zarurligini bildiradi. Ushbu jadval yillar bo'yicha investitsiyalar hajmidagi o'zgarishlarni aks ettiradi. 2019-yilda yashil investitsiyalar hajmi nisbatan past bo'lib, keyingi yillarda barqaror o'sish kuzatilmoqda. Ayniqsa, 2022-2023-yillarda yashil loyihalarga jalb qilingan mablag' hajmi sezilarli darajada oshgan. Bu o'sish davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash dasturlari va xalqaro moliyaviy institutlar bilan hamkorlik natijasida yuz bergen. 2024-yilga ko'ra, yashil investitsiyalar hajmining oshishi davom etmoqda, biroq bu ko'rsatkich chet el investitsiyalarining jalb qilinish darajasiga bog'liq bo'ladi.

Jadval Xorazm viloyatining turli tuman va shaharlarida yashil investitsiyalar qanday taqsimlanganini ko'rsatadi. Eng yuqori investitsiya hajmi Urganch va Xiva shaharlariga to'g'ri keladi. Chunki bu hududlarda infratuzilma rivojlangan bo'lib, xorijiy va davlat mablag'larini jalb qilish imkoniyatlari yuqori. Shu bilan birga, tumanlar orasida

Bog'ot, Gurlan va Yangiariq tumanlarida yashil investitsiyalar ulushi nisbatan past. Bu hududlarda investitsion muhitni yaxshilash va moliyaviy resurslarni ko'proq jalg qilish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar zarur hamda jadvalda yashil investitsiyalarning iqtisodiy samaradorlik bo'yicha asosiy ko'rsatkichlari keltirilgan. Natijalar shuni ko'rsatadiki, investitsiyalarning rentabellik darajasi 2021-yildan boshlab o'sish tendensiyasiga ega. Ayniqsa, qayta tiklanadigan energiya manbalari va ekologik toza texnologiyalar sohasida investitsiyalar yuqori daromadlilik ko'rsatmoqda. Biroq, ayrim hududlarda investitsiyalarning qaytimi past bo'lib, bu loyihalarning samaradorligini oshirish bo'yicha qo'shimcha tahlillar o'tkazish zarurligini bildiradi.

### 1-jadval

#### Moliyalashtirish manbalari bo'yicha asosiy kapitalga o'zlashtirilgan investitsiyalar tarkibi<sup>4</sup>

	Korxonalar va aholining o'z vositalari	Qabul qilingan mablag'lар	ulardan:				Korxonalar va aholining o'z vositalari	Qabul qilingan mablag'lар	ulardan:				Korxonalar va aholining o'z vositalari	Qabul qilingan mablag'lар	ulardan:							
			davlat byudjeti		banklarning kreditlari va boshqa qarz mablag'lari		chet et investitsiyalari va kreditlari		davlat byudjeti		banklarning kreditlari va boshqa qarz mablag'lari		chet et investitsiyalari va kreditlari		davlat byudjeti		banklarning kreditlari va boshqa qarz mablag'lari		chet et investitsiyalari va kreditlari			
			2019 -yil						2020 -yil						2021 -yil							
Xorazm viloyati	32.8	65.6	9.5	13.6	42.5	41.2	55.0	8.5	14.5	32.0	45.8	51.4	10.2	7.6	33.5							
Urganch sh.	31.5	68.3	8.6	19.4	40.3	50.1	48.5	6.2	9.7	32.5	57.6	32.6	14.8	8.4	9.4							
Xiva sh.	29.1	70.0	6.4	6.1	57.5	29.2	67.2	10.6	2.2	54.4	50.2	49.6	6.6	3.0	40.0							
tumanlar																						
Bog'ot	18.4	79.9	5.3	30.6	44.0	27.2	68.0	8.6	20.9	38.6	42.4	57.0	8.5	11.3	37.3							
Gurlan	33.3	66.1	14.0	4.4	47.7	32.5	58.9	7.6	11.1	40.1	41.1	58.1	15.0	5.1	37.9							
Qo'shko'pir	26.3	72.2	11.4	2.7	58.1	44.3	51.7	11.7	6.4	33.6	45.8	53.4	9.2	8.0	36.3							
Urganch	30.6	68.5	14.4	9.1	45.1	41.1	52.1	8.2	17.4	26.5	46.0	53.6	13.7	15.5	24.5							
Hazorasp	37.1	59.9	11.9	11.3	36.7	41.1	54.7	11.4	24.8	18.5	72.5	27.0	7.4	4.7	14.9							
Tuproqqa'l'a	x	x	x	x	x	24.6	74.2	19.1	16.5	38.6	30.8	68.4	17.4	7.0	44.0							
Xonqa	20.2	72.2	5.9	7.4	58.9	32.7	64.4	5.1	29.4	29.8	45.1	54.6	3.9	15.8	34.9							
Xiva	27.1	71.6	18.0	12.5	41.2	45.8	47.1	17.0	16.2	13.9	41.9	57.1	13.9	10.2	33.0							
Shovot	52.1	44.9	9.6	12.9	22.4	38.5	54.4	10.3	11.8	32.3	40.1	58.8	12.7	5.5	40.6							
Yangiariq	73.3	26.0	7.2	7.8	11.0	41.4	55.5	5.6	19.6	30.2	16.8	82.8	2.2	4.1	76.5							
Yangibozor	37.9	60.4	7.9	6.0	46.4	54.8	40.6	9.6	6.6	24.4	51.6	47.5	9.3	5.4	32.8							
Bo'linmagan hajm	57.3	42.7	42.7	0.0	0.0																	

Tahlil natijalaridan ko'rindanidagi mintaqadada yashil investitsiyalar hajmi so'nggi yillarda o'sib bormoqda, lekin ushbu jarayonda hali ham ayrim kamchiliklar mavjud. Investitsiyalar asosan davlat va bank kreditlari hisobiga amalga oshirilmoqda, shu sababli xususiy sektor va xorijiy investitsiyalar ulushini oshirish zarur. Hududiy taqsimot bo'yicha esa Urganch va Xiva shaharlarida investitsiyalar ancha yuqori, boshqa hududlarda esa bu ko'rsatkich pastroq.

### Xulosa va takliflar

O'tkazilgan tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, Xorazm viloyatida yashil investitsiyalar so'nggi yillarda bosqichma-bosqich rivojlanib bormoqda. Investitsiyalar hajmining ortib borishi ekologik barqarorlikni ta'minlash, muqobil energiya manbalaridan foydalanish va atrof-muhitga zarar yetkazmaydigan iqtisodiy faoliyatni qo'llab-quvvatlash imkonini bermoqda. Biroq, mavjud tendensiyalar shuni ko'rsatadiki,

<sup>4</sup> <https://www.xorazmstat.uz/files/295/Investitsiya/5424/Moliyalashtirish-manbalari-bo-yicha-o-zlashtirilgan-investisiyalar-xlsx>

moliyalashtirish asosan davlat byudjeti va bank kreditlari hisobidan amalga oshirilmoqda, bu esa xususiy sektor va xorijiy investitsiyalar ulushining yetarli darajada emasligini bildiradi. Shuningdek, investitsiyalar hududiy jihatdan ham nomutanosib taqsimlanib, asosan markaziy shaharlar – Urganch va Xiva hududida to'planmoqda. Bu esa viloyatning boshqa tumanlarida yashil investitsiyalarni rivojlantirish bo'yicha qo'shimcha choralar ko'rish zarurligini ko'rsatadi.

### 1-jadval davomi

	Korxonalar va aholining o'z vositalari	Qabul qilingan mablag'lar	ulardan:				Korxonalar va aholining o'z vositalari	Qabul qilingan mablag'lar	ulardan:				Korxonalar va aholining o'z vositalari	Qabul qilingan mablag'lar	ulardan:									
			davlat byudjeti		banklarning kreditlari va boshqa qarz mablag'lari				banklarning kreditlari va boshqa qarz mablag'lari		chet el investitsiyalari va kreditlari				davlat byudjeti		banklarning kreditlari va boshqa qarz mablag'lari		chet el investitsiyalari va kreditlari					
			2022 - yil						2023 - yil						2024 - yil yanvar-dekabr									
Xorazm viloyati	48.3	49.2	9.2	7.7	32.3	43.6	55.7	6.5	1.8	47.4	32.1	67.0	6.0	1.6	59.4									
Urganch sh.	55.2	40.5	11.8	6.2	22.5	53.6	43.4	11.0	1.0	31.5	32.0	66.9	8.6	0.8	57.5									
Xiva sh.	46.6	53.3	4.9	11.1	37.4	51.1	57.5	9.0	0.7	47.8	17.0	82.6	6.8	0.2	75.6									
Bog'ot	77.4	21.9	5.9	9.6	6.4	45.4	51.9	6.7	1.0	44.2	44.1	50.3	5.7	0.9	43.6									
Gurlan	47.5	52.0	19.7	12.7	19.7	65.4	26.5	10.3	1.5	14.6	31.0	68.7	5.8	0.7	62.2									
Qo'shko'pir	31.6	68.1	5.2	10.2	52.6	27.6	72.7	4.6	0.7	67.4	19.0	78.5	4.5	0.5	73.4									
Urganch	45.1	54.3	16.5	9.9	27.9	26.8	69.5	2.8	1.8	64.9	28.8	71.2	2.4	1.7	67.0									
Hazorasp	63.0	31.5	8.0	8.6	14.9	74.4	30.9	6.7	10.7	13.5	41.6	57.4	5.9	8.5	43.1									
Tuproqql'a	57.7	37.1	11.0	2.3	23.7	75.6	29.9	8.7	2.7	18.5	31.9	68.1	8.7	2.1	57.2									
Xonqa	46.3	48.8	5.2	7.5	36.0	50.1	47.9	5.0	1.9	41.0	69.9	30.1	7.4	2.2	20.5									
Xiva	49.6	50.0	8.8	5.0	36.2	27.2	71.4	2.2	1.2	68.0	21.0	78.4	1.9	1.2	75.3									
Shovot	34.5	64.1	4.0	5.0	55.0	42.3	58.8	9.5	1.0	48.3	65.3	33.5	8.2	1.2	24.1									
Yangiariq	28.4	70.3	2.2	9.3	58.8	39.4	61.8	3.6	0.9	57.3	41.3	58.1	8.7	1.3	48.2									
Yangibozor	53.0	46.5	11.4	6.4	28.7	21.4	77.8	2.7	1.0	74.0	27.9	71.7	6.0	1.6	64.0									
Bo'linmagan hajm																								

Kelajakda yashil investitsiyalarni yanada rivojlantirish va samaradorligini oshirish uchun quyidagi chora-tadbirlarni amalga oshirish maqsadga muvofiq:

❖ Birinchidan, xususiy sektor ishtirokini kengaytirish zarur. Yashil loyihalarga biznes subyektlarini jalb qilish uchun ularning investitsion faolligini oshirishga qaratilgan imtiyozlar va rag'batlantiruvchi mexanizmlar ishlab chiqilishi lozim. Xususan, ekologik toza ishlab chiqarishni yo'lga qo'ygan tadbirkorlik subyektlariga soliq imtiyozlari va kredit resurslaridan qulay sharoitda foydalanish imkoniyatlari taqdim etilishi muhimdir.

❖ Ikkinchidan, xorijiy investitsiyalarni ko'paytirish talab etiladi. Xalqaro moliyaviy institutlar va chet el sarmoyadorlari bilan hamkorlikni kengaytirish orqali yashil loyihalarga jalb qilinadigan investitsiyalar hajmini oshirish mumkin. Buning uchun xorijiy investorlar uchun huquqiy kafolatlarni kuchaytirish, soddalashtirilgan ruxsatnomalar tizimini joriy etish va yashil texnologiyalar sohasida xorijiy kompaniyalar bilan qo'shma loyihalarni yo'lga qo'yish lozim.

❖ Uchinchidan, moliyalashtirish manbalarini diversifikatsiya qilish muhim ahamiyat kasb etadi. Davlat byudjeti va bank kreditlaridan tashqari, xalqaro grantlar, xususiy investitsiyalar hamda davlat-xususiy sheriklik (DXSH) mexanizmlaridan samarali foydalanish zarur. DXSH doirasida davlat ekologik loyihalarni boshlang'ich bosqichda

qo'llab-quvvatlab, keyinchalik xususiy sektor ishtirokini kengaytirish yo'li bilan barqaror moliyalashtirish tizimini shakllantirishi mumkin.

❖ To'rtinchidan, hududiy muvozanatni saqlash va yashil investitsiyalarni faqat markaziy shaharlar emas, balki viloyatning boshqa hududlariga ham yo'naltirish talab etiladi. Ayni paytda yashil investitsiyalarning asosiy qismi Urganch va Xiva shaharlariga to'g'ri kelayotgan bo'lsa, Bog'ot, Gurlan va Yangiariq tumanlarida bu ko'rsatkich ancha past. Shu sababli, kam investitsiya jalb qilingan hududlarda qulay investitsion muhit yaratish, yashil infratuzilmani rivojlantirish va maxsus iqtisodiy zonalar tashkil etish lozim.

❖ Besinchidan, ekologik innovatsiyalarni qo'llab-quvvatlash orqali yashil iqtisodiyotni barqaror rivojlantirish maqsadga muvofiqdir. Yashil texnologiyalarni rivojlantirish va ekologik innovatsiyalarni amaliyatga tatbiq etish uchun ilmiy-tadqiqot institutlari, oliy ta'lim muassasalari va xususiy sektor o'rtaqidagi hamkorlikni kuchaytirish lozim. Ekologik startaplar uchun maxsus fondlar yaratish va ularning faoliyatini rag'batlantirish orqali yashil innovatsiyalarni ommalashtirish mumkin.

❖ Oltinchidan, barqaror infratuzilmani rivojlantirish muhim vazifa hisoblanadi. Yashil investitsiyalar asosan qayta tiklanadigan energiya manbalariga yo'naltirilgan bo'lsa-da, viloyatdagi transport, kommunal xizmatlar va sanoat infratuzilmasining ekologik jihatdan barqarorligini ta'minlashga ham e'tibor qaratish kerak. Xususan, energiya samaradorligini oshirishga yo'naltirilgan texnologiyalarni keng joriy etish va atrof-muhitga zarar yetkazmaydigan sanoat klasterlarini tashkil etish muhim ahamiyat kasb etadi.

Yuqorida qayd etilgan chora-tadbirlarning amalga oshirilishi Xorazm viloyatida yashil investitsiyalar salmog'ini oshirish, ekologik barqaror iqtisodiy rivojlanish jarayonini tezlashtirish hamda uzoq muddatli iqtisodiy samaradorlikni ta'minlashga xizmat qiladi. Shu sababli, hukumat, mahalliy boshqaruvi organlari va biznes subyektlari o'rtaqidagi hamkorlikni mustahkamlash, investitsion faollilikni oshirish va yashil texnologiyalarni keng joriy etish strategik ustuvor yo'nalishlar sifatida belgilanishi lozim.

### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yhati**

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 4-oktabrdagi "2019–2030-yillar davrida O'zbekiston Respublikasining "Yashil" iqtisodiyotga o'tish strategiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PQ-4477-son qarori.
2. Financing Sustainable Development: The Role of Sovereign Wealth Funds for Green Investment. Geneva, UNEP, 2017. p. 4.
3. Козин М. Н. Динамическая модель оценки производственно-экономической устойчивости оборонного предприятия / М. Н. Козин // Аудит и финансовый анализ. – Москва, 2017. - №4. – с. 24–31.
4. Плешков С. Ю. Разработка механизма повышения уровня экономической устойчивости деятельности строительного предприятия / С. Ю. Плешков.: Автореф. дис. ... канд. экон. наук. - Екатеринбург, 2018. – с. 18.
5. Global Trends in Renewable Energy Investment 2020, Frankfurt School-UNEP Centre/BNEF. 2020
6. Adams JS, Victurine R (2011) Permanent conservation trusts: a study of the long-term benefits of conservation endowments. Conservation Trust Funds, Avato P, Coony J

(2008) Accelerating clean energy technology research, development, and deployment. World Bank, Washington, DC,

7. Яруллина, Г. Р. Динамическая модель мониторинга устойчивого экономического развития промышленного предприятия / Г. Р. Яруллина // Аудит и финансовый анализ. - 2018. - № 6. – с.195–202.

8. Bell LA, Freeman RB (2001) The incentive for working hard: explaining hours worked: differences in the US and Germany. Labour Econ 8:181–202,

9. Brown LR (2011) The new geopolitics of food. Foreign policy. The FP Group, Washington, DC,

10. Costanza R, Farley J (2010) What should be done with the revenues from a carbon cap and auction systems? Solutions 1:33, Coy P (2012) The other U. S. energy crisis: lack of R&D: R&D neglect is holding back innovative energy technologies. Bloomberg Businessweek. New York: Bloomberg L. P, Daly HE (2008)

11. Vaxabov A. V., Fayzullayev J. N. "Yashil" iqtisodiyotga o'tish bo'yicha xalqaro va milliy dasturlar // "Ta'lim tizimida ijtimoiy-gumanitar fanlar" ilmiy-metodologik va ilmiy-uslubiy jurnal, 2019 № 3 (iyul-sentabr) 39–50 bet,

12. Xamrayeva S. N. Qishloq infratuzilmasini innovatsion rivojlantirish. Monografiya. – T.: Iqtisod-Moliya, 2017. – 256 b,

13. Чебанов С. "Зеленая" экономика: роль суверенных фондов. // Мировая экономика и международные отношения, № 3, 2019. С. 11

14. <https://about.bnef.com/blog/sweden-spain-the-cheapest-european-markets-for-wind-and-solar-corporate-ppasbnefsurvey-finds>

Copyright: © 2025 by the authors. This work is licensed under a Creative Commons Attribution-4.0 International License (CC - BY 4.0)

